

# “FIESTALONIA” SAN’AT-MADANIYAT FESTIVALI O‘ZBEKISTONDA HAM O‘TKAZILADI

***O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talaba va o‘qituvchilaridan iborat ijodiy guruh Ispaniyaning Kataloniya shahrida o‘tkazilgan san’at yo‘nalishidagi Xalqaro tanlov va festival – “Fiestalonia Milenio”da ishtirok etib qaytishdi.***




24-28 mart kunlari san’atning turli yo‘nalishlarida bo‘lib o‘tgan ushbu festivalda dunyoning 22 mamlakatidan ko‘plab ijodkorlar ishtirok etishdi. O‘zDSMI Xalq ijodiyoti fakulteti, “cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi yetakchi konsertmeysteri Ayapbergen Otegenov 30 yoshdan kattalar o‘rtasida fortepiano ijrochiligi yo‘nalishida yuzlab ijodkorlar orasida 1 o‘rinni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, institutning 4 kurs talabasi Bahodir Baratov “milliy cholg‘ularda ijro etish” yo‘nalishida qashqar rubobida “staroye bandjo” kuyini ijro etib o‘z tengqurlari orasida ikkinchi o‘rinni egalladi.


I Prize
Otegenov Ayapbergen
Nomination – Piano
VI age category (from 26 years old)
Lloret de Mar, Spain
25.03.2019
PRESIDENT OF FIESTALONIA MILENIO
WWW.FIESTALONIA.NET


INTERNATIONAL CONTEST
MUSICA DEL MAR
DIPLOMA
II Prize
Baratov Bakhodir
Nomination – Folk instruments
IV age category (20 - 25 years old)
Director - Rajabov Khikmat
Accompanist - Otegenov Ayapbergen
Lloret de Mar, Spain
25.03.2019

Shuni aytib o‘tish lozimki, “Fiestalonia” Xalqaro festivali bir necha yillardan buyon tashkilotchilari tomonidan har yili dunyoning turli mamlkatlarida o‘tkazib kelinadi. Shu kunga qadar Markaziy Osiyoda faqatgina Qozog‘iston ushbu tanlovga mezbonlik qilgan. Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivolantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda “Fiestalonia” san’at-madaniyat festivallari tashkiloti rahbari David Djaparidzening o‘zaro kelishuviga ko‘ra kegusi yilda ushbu Xalqaro festival Toshkentda o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

**O‘zDSMI Axborot xizmati**